

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR:

DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



2022
DEKABR
№47



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.taqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
3-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-3**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-3**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 46-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 декабрь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 31 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Ҳамидович «ТИИМСХ»

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

1. Hayitmurodova Zaynura G'aybullayevna QORAXONIYLAR DAVRIDA ELCHILIK MUNOSABATLARI.....	7
2. Masharipov Sanjar Ergashovich TARIX DARSLARI SAMARALI BO'LISHINI TA'MINLASH.....	11
3. Nazarov Quadrat TARIX FANINI O'QITISHDA ILMIY PEDAGOGIKANING O'RNI.....	13
4. Xudayberdiyev Jahonbek Qaxramonovich JAHON TARIXI FANINI O'RGATISHDA CHET EL ZAMONAVIY METODLARIDAN FOYDALANISH	15
5. Djabborova Adolat XORAZM VOHASI ME'MORIY YODGORLIKLARINI O'RGANILISHI BORASIDAGI AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR.....	17
6. Jo'raqulova Dilshoda Shaxriddin qizi TARIX FANINI O'RGANISHDA SAMARADORLIKNI TA'MINLOVCHI METODLAR	19
7. Akbarova Nafisaxon Ikromovna TARIX VA TARBIYA DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION YONDASHUV	20
8. Egamberganova Oygul Xaytbayevna O'QUVCHILARDA TARIXNI BILISH ORQALI O'ZLIKNI ANGLATISH USULLARI	22
9. Qosimov Abdisattor Choriyevich RANGLI QORAKO'L UCHUN YETAKCHI FERMA.....	24
10. Raymova Gulnur Umirzakovna IJTIMOIY FANLARNI O'QITISHGA OID MENING INNOVATSION G'OYAM.....	27
11. Мухаммадаминов Саидакбар СРЕДНЕАЗИАТСКИЕ ДЖОНГИ КАК КОДЕКСЫ МУСУЛЬМАНСКИХ ПРАВОВЫХ НОРМ В МАБЕРАННАХРЕ XVII–XIX ВЕКОВ.....	29



ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

QORAXONIYLAR DAVRIDA ELCHILIK MUNOSABATLARI

Hayitmurodova Zaynura G'aybullayevna

Termiz davlat universiteti Tarix
yo'nalishi 2-kurs magistranti
zalnuraxayitmurodova@gmail.com

***Annotatsiya:** Tadqiq etilayotgan davrda xalqaro diplomatik munosabatlar yetarli darajada takomillashmagan, beqaror va nozik bo'lgan bo'lsada, xalqaro aloqalar tizimi bir institut sifatida rivojlanishda davom etgan. Aynan xalqaro munosabatlar tizimining rivojlanib borishi “elchilik xizmati”ni tashkil etish, bu soxada mutaxassislar tayyorlashga e'tibor berishga undagan. Elchilik maqomi qadimdan eng mas'uliyatli vazifalardan biri sanalgan. Shu bois bu vazifa ko'pni ko'rgan, aqlli, farosatli, dono kishilar zimmasiga yuklatilgan. Shuningdek, ma'lum bir davrlar silsilasida elchi va u ega bo'lishi lozim bo'lgan xislatlar tizimi ishlab chiqilgan. Qoraxoniylar davrida elchilik munosabatlari eng rivojlangan davr hisoblangan bo'lib, hamkorlik aloqalarini o'rnatishda savdo-sotiqning rivojlanishida muhim o'rin tutishgan.*

***Kalit so'zlar:** Yettisuv, xon, Buyuk xon, ulug'xon, O'zgard, elchilik munosabatlari, hamkorlik aloqalari.*

Mamlakatimiz davlatchiligi tarixida o'ziga xos o'ringa ega Qoraxoniylar davlati tarixshunosligi u qadar boy emas. Tarixchi olimlar qoraxoniylar davlati tarixi hali to'liq o'rganilmaganligini ta'kidlashgan. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig”, Mahmud Qoshg'ariyning “Devonu lug'atit turk”, Mahmud O'shiyning “Fatvoyi qozixon”, Abu Said Gardiziyning “Zayn ul-axbor”, Ibn al-Asimning “Al- komil fit-tarix” asarlarida qoraxoniylar tarixi xususida tegishli ma'lumotlar mavjud. Mahmud Qoshg'ariyning “Devon-u lug'atit turk” asari turkiy qavmlar tarixi xususida qimmatli ma'lumotlar beradi. Aslida esa ilgari ham ko'p marta bo'lganidek, X asrning ikkinchi yarmiga kelib mintaqaning Yettisuv qismida o'zi shakllangan makondan ko'ra ham kengroq miqyosda siyosiy faoliyat ko'rsatish imkoni va qudratiga ega bo'lgan yangi siyosiy kuch maydonga chiqadi. Biz ularni Qoraxoniylar nomi ostida bilamiz. Ikki og'iz so'z “Qoraxon” atamasi to'g'risida. Bu yerda “xon” ma'lum tushuncha, ya'ni “hukmdor”. “Qora”ning (aslida esa “qaro”) bir necha ma'noda qo'llanilishini ta'kidlagan holda, biz ko'rayotgan misolda “buyuk”, “ulug'” tushunchasini beradi, desak xato bo'lmaydi, ya'ni “Buyuk xon”, “ulug'xon”. Shu o'rinda Qoraxoniylar sulolasining kelib chiqishi masalasiga doir savol tug'iladi. Ilmiy doiralarda mazkur masalaga haligacha uzil-kesil nuqta qo'yilganicha yo'q. Qoraxoniylar faoliyati mintaqamizning Yettisuv, Markaziy Tangritog' hududida qadimdan yashab kelayotgan turkiy tilli qavmlarning siyosiy, iqtisodiy, ma'daniy, ma'naviy munosabatlari muhitida shakllanganligi aniq bo'lgani holda, mazkur sulola to'g'ridan-to'g'ri qaysi bir qabilaga tegishli ekani masalasi hamon bahstalab bo'lib kelmoqda. Bu fan uchun tabiiy hol, albatta. Biz uchun esa asosiy vazifa o'zbek davlatchiligi tarixida Qoraxoniylar sulolasi davrida elchilik munosabatlarini ko'rsatib berishdan iboratdir. XI asr boshlarida Turkiston bir qancha siyosiy kuchlar tomonidan idora etilgan. Sharqiy Turkiston, Toshkent, Isfijob, Farg'ona, Samarqand, Buxoro, Chag'oniyon, Xuttalon viloyatlari qoraxoniylar, Amudaryoning chap sohilidagi yerlar to'g'aznagacha, Xuroson, Seyiston viloyatlari G'aznaviylar, Xorazm esa Xorazmshohlar, Orol dengizidan Sharq va shimoldagi erlar o'g'izlar Ittifoqi tomonidan boshqarilar edi. Zero, yagona mamlakat va ulkan mintaqaning bir qancha siyosiy makonlarga bo'linishi, uning ichki va tashqi xavfsizligiga putur etkazishi, siyosiy kuchlararo ziddiyatlar kelib chiqishiga olib kelishi turgan gap edi. Xuddi shunday bo'ldi ham. Somoniylar, Qoraxoniylar va G'aznaviy hukmdorlar xorijiy musulmon bulmagan davlatlar bilan diplomatik aloqalarini Bag'dodning bevosita roziligi asosidagina olib borgan bulsalar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar davrida esa biz xalifalarning ta'siri pasayganligini va



kup xollarda ushbu ikki sulolaning ayrim hukmdorlari Bag‘dodga bosim utkaza olganliklariga guvoh bulishimiz mumkin. Elchilar xalifaga “mavlono” va “amiru-l-muminiyn” deb murojaat qilganlar, ularni qarshisida yerni o‘pish talab qilingan. G‘ayridinlar bilan elchilik munosabatlarini yo‘lga qo‘yishda boshqa tadbirlar bilan bir qatorda islom dinini targ‘ib qilish masalasi katta ahamiyat kasb etgan. Qoraxoniylar tarixini o‘rganishda elchilik munosabatlarini yo‘lga qo‘yilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Savdo aloqalarining rivojlanishida esa xonning o‘rini beqiyos hisoblangan. Qoraxoniylar davlatining qulay geografik joylashuvi Xitoyning Lyao va Sun sulolalari hamda islom dunyosining eng yirik siyosiy kuchlaridan bo‘lmish G‘aznaviylar, Saljuqiylar xamda Xorazmshoxlar bilan diplomatik munosabatlarni yo‘lga qo‘yishga imkon yaratgan. Yuqorida qayd etilganidek, ikki davlat o‘rtasidagi sovg‘a-salom almashinuvi elchilik xizmatining muxim tarkibiy qismi hisoblangan. Davlatlarning mavqei va elchilar oldiga qo‘yilgan aniq missiyaga bog‘liq tarzda sovg‘a-salomlarning darajasi turlicha bo‘lgan. Yana yuqoridagi vaziyatni davomi sifatida shuni aytish mumkinki: G‘aznaviylar tomonidan Qoraxoniylarga junatilgan elchilik esa qanday sovg‘alar olib borganligini quyidagi misol orqali bilib olamiz: “Ularning ichida chaqmoq toshlar va marjon iplari bilan bezatilgan ikkita tilla qadax. Zardo‘zi matolar, ko‘plab boshqa turdagi rumiy, bag‘dodiy, isfaxoniy, nishopuriy matolar, turli tuman gazlamalar, xind dastorlari, mushk, aloy (sabur), anbar, yakdona deb atalgan ikkita marjonshoda va boshqa sovg‘alar bor bulib, xon, uning o‘g‘li Bugrotegin, xotin va kelinlarga, tog‘a va amakilarga, hojibu ayonlarga taqdim etish uchun mo‘ljallangan. Ro‘yxatda ko‘rsatilgan barcha narsalar g‘aznadan olib chiqilgan va tekshirib ko‘rish uchun berilgan hamda elchilarga qayta topshirilgan. Elchilar bilan birga sovg‘alarni olib borish uchun ba‘zan alohida maxsus g‘aznachi, unga buysunuvchi xammollar va boshqalar tayinlanganlar xamda ushbu kishilarning vazifasi xazinadan olingan sovg‘alarni elchilar bilan birga olib borishdan iborat bo‘lgan. Elchi sog‘-salomat yetib kelganidan keyin, u hukmdorni oldiga kuzatib borilgan. Hukmdor ba‘zi xolatlarda xurmatini namoyon qilish ma‘nosida o‘z qo‘lini o‘pishga ruxsat bergan. Shundan so‘ng elchi unga rasmiy yozishmani va sovg‘alarni topshirgan. Sovg‘alar xat jo‘natuvchining mavqeiga mos tarzda bo‘lishi kerak bo‘lgan, saxiylarcha juda qimmatbaxo sovg‘alarni taqdim etish xar doim xam xushlanmagan. Elchilik lavozimiga ko‘proq qozilar, diniy ulamolar tayinlangan. Munosabatlar o‘ta nozik bo‘lganda ularni tiklash yoki qaltis masalalarni xal qilish kerak bo‘lganda mashxur olimlar, taniqli shayxlar xam elchi sifatida boshqa davlatlarga jo‘natilgan. Elchidan imkon qadar barcha bilimlardan xabardor bo‘lish, bir necha tillarda erkin so‘zlasha olish, o‘zi elchi bo‘lib ketayotgan davlatning geografik tuzilishi, xalqlari, urf-odati va an‘analarini yaxshi bilishi talab etilgan. Shu bilan birga elchi hukmdorning ichki va tashqi siyosatidan nafaqat boxabar bo‘lishi, balki uni noziklik bilan faxmlashi va o‘z hukmdorining maqsadlarini ikkinchi hukmdorga yetkaza olishi kerak edi. Bunday xislatlar sohibi bo‘lish uchun esa maxsus bilim va tajribaga ega bo‘lish muhim o‘rin tutgan. Qoraxoniylar nafakat qo‘shni davlatlar bilan, balki islom dunyosining diniy ustuni bo‘lmish Abbosiylar (750-1258) sulolasi bilan xam rasmiy munosabatlarni yo‘lga qo‘ygan edi. Ibn al-Fuvatiy (1244-1326) o‘zining biografik lug‘atida bizning kunlarga yetib kelmagan zamonasining manbalariga tayangan xolda “Tafgach al-Turkistoniy”, deb tanilgan Qoraxoniylar hukmdori Ibroxim ibn Nasr (1038-1068) xalifa al-Koyim (1031-1075) xuzuriga xar yili elchilar yuborganini xabar qiladi. Ba‘zi xollarda Qoraxoniylar sulolasining namoyondalari Bag‘dodga shaxsan o‘zlari xam tashrif buyurishgan. Qoraxoniylarning izchil yo‘lga qo‘yilgan tashki siyosati iqtisodiy hayotning rivojlanishiga xam olib keldi. Qoraxoniylar davlati xalqaro savdoning markaziga aylandi. Lyao va Sun davlatlari bilan bo‘lgan aloqalari orqali Xitoy maxsulotlari, G‘aznaviylar orqali Xindiston maxsulotlari, Saljukiylar orqali Eron va Kichik Osiyo maxsulotlari, Xorazm orqali esa Slavyan va Bulgor dunyosi maxsulotlari Qoraxoniylar ichki bozoriga tadrijiy ravishda kirib bordi. Mazkur xalqaro savdo tarmog‘i aslida bundan xam yirik va murakkab bo‘lgan. Negaki, Volga bo‘ylarida tashkil etilgan. Bulgor davlatining (X-XIII asrlar) savdo markazlarini viking kemalari xam ziyorat qilib turgan.

1008 yili Qoraxoniylar va G‘aznaviylar o‘rtasida harbiy to‘qnashuv yuz beradi (Balx atrofida). Shunisi qiziqki, o‘z vaqtida, ya‘ni Somoniylar sulolasi hukmronligi yillarida Qoraxoniylar va G‘aznaviylar o‘zaro yaqinlashuv siyosatini tutgan edilar. Buni siyosiy manfaatlar orqali tushuntirish mumkin. Qoraxoniylar va G‘aznaviylar o‘rtasidagi aloqalar boshqa davlatlar bilan bo‘lgan munosabatlarga qaraganda yozma manbalarda batafsilroq aks etgan. Xattoki,



diplomatik bayonnoma, elchilarni qabul qilish marosimlari hamda sovg'a-salomlar almashinuv jarayoni kabi masalalar ham keng yoritilgan. Shu tufayli, G'aznaviylar davlati bilan bo'lgan sovg'alar almashinuviga batafsilroq to'xtab o'tiladi. G'aznaviylar va Qoraxoniylar o'rtasida xududiy muammolar kelib chiqishiga qaramay, ikkala davlat diplomatik yo'llar bilan mavjud qiyinchiliklarni bartaraf qilishga intilgan. Davlatlar o'rtasidagi elchilar almashinuvi va xattoki, xukmdorlarning shaxsiy rasmiy uchrashuvlari buning dalilidir. Mazkur munosabatlar diplomatik qoidaga ko'ra nikoh rishtalari bilan mustaxkamlanib borgan. Sovg'a-salomlar ham mazkur jarayonda katta ahamiyatga ega bo'lgan. G'aznaviylar sultoni Maxmud (998-1030) davlatining shimoliy chegaralarini mustaxkamlash va nikox orkali sulh tuzish niyatida Qoraxoniylar xukmdori Nasr ibn Ali (998-1015) xuzuriga 1001 yili elchilarni jo'natadi. Sulton Maxmud xuzurida xizmat kelgan G'aznaviylar tarixchisi al-Utbiy G'aznaviylar tomonidan taqdim etilgan sovg'a-salomlar ro'yxatini o'z asarida keltirib o'tgan. Qoraxoniylar G'aznaviylar elchiligiga javoban turli sovg'a-salomlar bilan Sulton Maxmud xuzuriga nikox rishtalarini o'rnatish uchun Qoraxoniylar malikalaridan birini yuborishadi. Qoraxoniylar maxalliy maxsulotlar qatorida islom dunyosida nihoyatda katta nufuzga ega bo'lgan. Xitoy chinnisi va matosini diplomatik sovg'alar qatoriga qo'shganlar. Albatta bu buyumlar xalqaro savdoga ham faol jalb qilingan. Sun sulolasi davrida Xitoy chinnisining sifati yanada oshdi. O'rta asrlarda mashhur bo'lgan oq-ko'k Xitoy chinnisi aynan Sun davrining kashfiyoti xisoblanadi. Qoraxoniylar orqali bu nafis chinnilar dunyo bo'ylab tarqalgan. Qullar masalasiga kelsak, Qoraxoniylarga qadar Somoniylar turkiy xalqlar bilan bo'lgan urushlar davomida asirlikka tushgan askarlarni qul sifatida islom davlatlariga eksport qilgan. Shu bilan birga, ular qullarni o'lpon yoxud diplomatik sovg'a-salomlar sifatida ham taqdim etishgan. Arab manbalarida turkiy g'ulomlar, Buxoro cho'ri qizlari, Samarqand kanizaklari dunyo mo'jizalaridan biri sifatida ta'riflanadi. Qoraxoniylar ham qullardan diplomatik sovg'a sifatida foydalanganliklarini kuzatishimiz mumkin. Qoraxoniylar va G'aznaviylar diplomatik aloqalari tarixi nafaqat o'zaro elchilar almashinuvi, balki ikki xukmdor o'rtasidagi rasmiy uchrashuvlardan ham iborat. 1025 yili Samarqand yaqinida G'aznaviylar sultoni Maxmud va Qoraxoniylar xukmdori Yusuf Qodirxon o'rtasida aynan shunday uchrashuv bo'lib o'tadi. Gardiziyning xabar berishicha, “butun Turkiston xukmdori bo'lmish buyuk xon” Yusuf Kodirxon Sulton Maxmudni shaxsan qarshilash uchun Koshgardan yetib keladi. Elchilik rasm-rusumiga ko'ra ikkala taraf o'rtasida sovg'alar almashinuvi marosimi bo'lib o'tadi. G'aznaviylar Xuroson, Xindiston, G'arbiy Osiyo va Transkavkaziyadan keltirilgan qimmatbaxo buyumlarni taqdim etadi.

G'aznaviylar va Qoraxoniylar o'rtasida xududiy muammolar kelib chiqishiga qaramay, ikkala davlat diplomatik yo'llar bilan mavjud qiyinchiliklarni bartaraf qilishga intilgan. Davlatlar o'rtasidagi elchilar almashinuvi va xattoki, xukmdorlarning shaxsiy rasmiy uchrashuvlari buning dalilidir.

Mazkur munosabatlar diplomatik qoidaga ko'ra nikox rishtalari bilan mustaxkamlanib borgan. Sovg'a-salomlar ham mazkur jarayonda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Diplomatik sovg'a-salomlar o'rni va ularning tarkibini tadqiq qilish orqali yana bir qator boshqa masalalar o'z yechimini topishi mumkin.

XI asrning ikkinchi yarmidan boshlab esa Qoraxoniylar shu yuz yillikning 40-yillaridan buyon kuchga kira boshlagan boshqa bir turkiy tilli sulola-Saljuqiylar bilan keskin munosabatda bo'la boshlaydilar. Ma'lumki, Saljuqiylar XI asrning 40 yili G'aznaviylarni mag'lubiyatga uchratib, 50-yillardan esa Xurosondan Bag'dodgacha bo'lgan hududni o'zlariga bo'sundirishga erishgan edilar. Mintaqada hukmronlikka intilish borasidagi bu ikki sulola o'rtasidagi kurashning amaliy ko'rinishi sifatida 1089 yil voqealarini keltirish mumkin. Qoraxitoylar qudrati nechog'lik bo'lganini shundan ham bilib olsa bo'ladiki, 1141 yili ular endi Qoraxoniylar va saljuqiylarning Birlashgan lashkarlariga ham zarba berishga muvaffaq bo'ladilar. Qizig'i shu yerdaki, qoraxitoylar ham qoraxoniylarni siyosiy sulola sifatida butunlay yo'q qilib tashlamay, aksincha, ularni o'z qaramliklarida tutib qoladilar. Qoraxoniylar faoliyatiga chek qo'yish esa 1213 yilga kelib yuz beradi. Buni Xorazmshoh Sulton Muhammad (1200-1220) amalga oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, elchilik xizmatini yo'lga qo'yishda yuqoridagi barcha tarkibiy masalalalarga katta e'tibor bilan qarash talab qilingan. Shuningdek, elchining aql-zakovat darajasi va ma'naviy dunyosining boyligi ham muhim xisoblangan, chunki elchi diplomatik vazifadan tashqari razvedka vazifasini ham bajarishi shart bo'lgan. Boshqa bir xukmdorning shaxri va xarbiy qarorgohi tashrif buyurgan vaqtda elchi uning xarbiy saloxiyati, madadkor



kuchlari va uning mulki iqtisodiyoti va shu kabilar tug'risida axborot to'play oladigan darajada bo'lishi talab qilingan. Yuqorida ko'rib chiqilganidek, qoraxoniylarning o'ziga xos diplomatiyasi tarixi tuzilgan hisoblanadi. Avvalo xonlarning o'zi ham mohir diplomat bo'lganligini hamda ichki va tashqi diplomatik munosabatlarga oid urf-odat va an'analarni yaxshi bilganligini alohida qayd etish joiz. Xususan, elchining diplomatik mahoratini ko'rsatadigan jihatlardan biri uning so'zamolligi (yani so'zga chechanligi) bo'lgan. Shu bilan birga ichki va tashqi diplomatik etiket qoidalaridan tashqariga chiqmaslik talab etilgan. Elchi tomonidan aytilayotgan so'z imkon qadar o'z suhbatdoshiga ijobiy ta'sir qilishi, ko'nglini yumshatishi va eng muhimi uni ishontira olishi kerak bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Давидович Е.А. Вопросы хронологии и генеалогии Каракханидов второй половины XII в. // Средняя Азия в древности и средневековые (история и культура). М., 1977
2. Davidovich, E. A. (1998), “The Karakhanids”, in Asimov, M.S.; Bosworth, C.E., History of Civilisations of Central Asia, 4 part I, Unesco Publishing, p. 120,
3. Кораев О., История Караханидского каганата X – начало XIII вв., Фрунзе, 1983
4. Кочнев Б. Д. Каракханидский каганат // Очерки по истории государственности Узбекистана. Ташкент: Шарк, 2001
5. Кочнев Б.Д. Шаш (Чач) и Илак при Каракханидакы (по нумизматическим данным) // Древняя и средневековая культура Чача. Ташкент, 1979
6. Кочнев Б. Д., Каракханидские монеты: источниковедческое и историческое исследование. Автореферат-диссертация доктора исторический наук, Москва, 1993
7. Кочнев Б. Д., Нумизматическая история Каракханидского каганата (991–1209 гг.). Москва. София, 2006
8. Kochnev, Boris D. (1996) “The Origins of the Karakhanids. A Reconsideration”, Der Islam, 73: 352-7.
9. Федоров М.Н. Каракханидская нумизматика как источник по истории Средней Азии конца X – начала XIII вв. Автореферат докторской диссертатсии. Новосибирск. 1990
10. Golden, Peter B. (1992), An Introduction to the History of the Turkic Peoples: Ethnogenesis and State-Formation in Medieval and Early Modern Eurasia and the Middle East, Otto Harrassowitz · Wiesbaden
11. Golden, Peter B. (2011), Central Asia in World History, Oxford University Press
12. Muhammadjonov A.R., O'zbekiston tarixi, T.: 1994
13. Shoniyozov Q., Qarluq davlati va qarluqlar, T.: 1999
14. Narshaxiy, Buxoro tarixi, T., 1991;
15. Sagdullayev A.S. O'zbekiston tarixi. 1-kitob. T.: 2021, – 624 b.
16. Xayrullayev M.M. O'zbek diplomatiyasi tarixidan. T.: 2003, – 376 b.
17. O'zbekistonda elchilik xizmati tarixidan: talqin va tahlil. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. T.: 2016.
18. Hayitmurodova Z.G'. Formation and development of chronological knowledge in central asia. Asian Journal Of Research In Social Sciences And Humanities. Volume 12 Issue 09 (2022) 30-37.
19. Hayitmurodova Z.G'. O'lchov birliklari dunyoni o'rganish usulidir. International scientific-online conference. France. Models and methods in modern science. 1 pp. 22-24 (13).



TARIX DARSLARI SAMARALI BO‘LISHINI TA‘MINLASH

Masharipov Sanjar Ergashovich
Xorazm viloyati Bog‘ot tumanidagi
1-son maktab Tarix fani o‘qituvchisi
Telefon:+998915706616
masharipovsanjar1@gmail.com

Annotatsiya: Tarix fani yosh avlodni tarbiyalashda ta‘limning barcha bosqichlarida o‘z o‘rniga ega. Ushbu maqolada milliy va xorijiy adabiyotlarni tahlil etish orqali tarixiy ta‘limni qanday qilib yanada samarali tashkil qilish mumkinligini muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston tarixi, samarali o‘qitish, tarixni o‘qitish, tarixni samarali o‘qitish metodi, darsni samarali tashkil etish, tarixiy xotira.

O‘zbek xalqining hayoti va taqdiriga keskin burilish yasagan mustaqillik soyasida ilm-fan, xususan milliy o‘zlik va ma‘naviy yuksalish asosi bo‘lgan tarix fani ham o‘ziga xos rivojlandi. O‘zbekiston tarixini xolisona yoritishda O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning "Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" asarida aytilganidek, "...jahondagi ilg‘or tajribalarni chuqur o‘rganish amalda joriy etishni oldimizda turgan keng ko‘lamli vazifalarni amalga oshirishning muhim shartlaridan biri, deb hisoblaymiz".

Ma‘naviyatning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lgan tarix fani so‘ngi yillarda ilk bor o‘zining qonuniy vazifasini bajarishga – xalqning o‘zligini anglatishga xizmat qilishgakiirishdi. "Tarixiy xotira tuyg‘usi to‘laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o‘tgan yo‘l o‘zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yuqotish va qurbonlari, quvonch va iztiroblari bilan xolis va haqqoniy o‘rganilgan taqdiridagina chinakam tarix bo‘ladi".

Tarixiy voqea, hodisalarni o‘rganish, tahlil etish va yoritishda xolislik, haqqoniylik, adolatli yondashuv muhim hisoblanadi. Tarix fanini samarali tashkil etish haqida fikr yuritishdan oldin "samarali ta‘lim" tushunchasini mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar fikrlarini tahlil etgan holda o‘rganib chiqsak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Samarali o‘qitish - bu o‘qituvchilarning turli xil o‘qitish uslublarini birlashtirib yoki ularni alohida qo‘llash orqali talabalarda mustaqil o‘rganish qobiliyati, dars atmosferasini idrok etish, tushunish va va kerakli bilimlarni egallash darajasi yuqori bo‘lgan ta‘lim jarayoni hisoblanadi. Shuningdek, samarali o‘qitish bu o‘z o‘lchovlari bilan baholanishi kerak bo‘lgan keng tushunchadir. Shuning uchun samarali o‘qitish, ta‘lim sifatini oshirish uchun tashkil etilgan turli xil murakkab jarayonlar majmuasi hisoblanadi.³⁵ Samarali o‘qitishning ikkita asosiy xususiyati mavjud. Bular: talabalarni turli xil faktlar, ko‘nikmalar, qadriyatlar va tushunchalarni o‘rganishlarini osonlashtirish; sinfda yagona kursni emas, balki turli xil o‘qitish strategiyalari, usullar va texnologiyalarni yakka yoki kombinatsiyalangan holda ishlatish qobiliyatini o‘qituvchilarda shakllantirish; Yana bir qarashga ko‘ra, samarali ta‘limni talabalarining muvaffaqiyat darajasini oshirish uchun zarur bo‘lgan asosiy o‘qituvchilik malakasi sifatida tavsiflash mumkin. Bu fikrlar qurshovida aytilish mumkinki, samarali ta‘lim beruvchi o‘qituvchi o‘z kasbi va sohasini bilgan va sevgan, bilimli, g‘ayratli, fidoyi, tartibli va kirishuvchan, tez va to‘g‘ri qarorlar qabul qilish qobiliyatiga sohib, adolatli va shu bilan birga talabalarga bilimni targ‘ib qilaoluvchi va ularning tinchligi va kelajagiga qiziqadigan shaxs sifatida belgilanadi.

"Ta‘lim" keng ma‘noda oldingi avlodlar tomonidan tashkil etilgan katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan tajribalarni doimiy ravishda keyingi avlodlarga yetkazishga yo‘naltirilgan umumiy jarayon, tor ma‘noda esa, ijtimoiy institut, jamiyatning ijtimoiy quyi tuzilmalaridan biridir. "Sifat" esa falsafiy termin sifatida ob‘ekt yoki predmetning barcha muhim xususiyatlari yig‘indisidir. "Ta‘lim" va "sifat" tushunchalarining mohiyatini uyg‘unlashtiradigan bo‘lsak, ta‘lim sifati, bu uning xususiyatlari yaxlitligi, ta‘lim oluvchi o‘qishi va shaxsiy rivojlanishi uchun xizmat qiladigan eng qulay usullar birikuvidan iborat jarayondir. Samarali tarix o‘qitish o‘qituvchilarga tayyor tarixiy xulosa qilingan ma‘lumotlar bilan birga manba va dalilarni taqdim etishni talab etadi. O‘qituvchi ma‘lum tarixiy manbalarni (xoh yozma, xoh og‘zaki bo‘lsin) tahlil etgan holda tarixiy bilim va tasavvur hosil qilishi pedagogik nuqtai nazarda g‘oyat samaralidir. Zotan, tarix darslarida ta‘lim oluvchining xotirasini rag‘batlantiruvchi usullardan ko‘ra, uning mustaqil fikrlashini ta‘minlaydigan usullardan foydalanish foydali hisoblanadi. Tarix o‘qituvchisining o‘ziga xos vazifasi tarixiy tushunchalarni o‘rgatish bilan birga uni kelajakga yetkazishni ta‘minlashdir. Tarixni



o'qitish samaradorligini ta'minlash uchun, tarix o'qituvchisidan ma'lum bilim darajasi va ba'zi o'qituvchilik qobiliyatlariga ega bo'lishi, tarixiy voqealarni, faktlarni, odamlarni, jarayonlarni va o'ziga xoslikni tushunish va tushuntirish uchun transformatsiya, sharhlash, baholash, tahlil va sintez qobiliyatlari va ko'nikmalarga ega bo'lish talab etiladi. Tarix o'qitish jarayonida boshqa ijtimoiy fanlar bilan o'zaro bog'liqligidan kelib chiqib materiallar tayyorlash, masalan geografiya, fuqarolik bilimlari, diniy madaniyat va axloqshunoslik fanlaridagi ma'lumotlardan foydalanish talabalarga nafaqat mavzularni yaxshiroq o'rganishga yordam beradi, balki umuman ijtimoiy voqeliklarni idrok etish va real hayotni tushunish imkoniyatini beradi. Dars jarayonida tarixiy materiallar va manbalardan (tarixiy hujjatlar, tarixiy ashyolar, rasmlar, xaritalar) foydalanish juda muhim va foydalidir. Bundan tashqari, tarix darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internetdan foydalanish o'quvchilarning aqliy rivojlanishiga hissa qo'shibgina qolmay, ularning tarixiy tafakkur va o'rganish darajalarini oshiradi.

Mamlakatimizda tarix fanini rivojlantirish sohasidagi ishlar kompleks va tizimli davom ettirilmoqda. Bugungi kunda O'zbekiston tarixini o'rganishda tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Ushbu yo'nalishda quyidagi ilmiy, metodologik masalalar asosiy o'rin tutadi:

1. Tarixni o'rganishning metodologik asoslarini rivojlantirish. Bunda tarix metodikasi bo'yicha mavjud turli xil ilmiy konsepsiyalarni o'rganish orqali ulardan foydalanish.
2. Tarixni o'rganish uchun ishlab chiqilgan yagona konsepsiyani amalga tadbiq etish.
3. O'rta va o'rta maxsus ta'lim, professional ta'lim, oliy ta'lim uchun yaratilayotgan darsliklarni yangi avlodini ishlab chiqishda yagona konsepsiyaga tayanish.
4. Tarix fanining dolzarb muammolarni o'rganishda turli fanlarning yutuqlari, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi hamda klaster modeli asosidagi samarali hamkorlik faoliyatini tashkil etish.
5. Tarix fanini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy-amaliy anjumanlarni o'tkazish va fanning dolzarb muammolarini o'rganish jarayonida erishilganyutuqlarni monitoringini olib borish va hokazo.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatinibirgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – B.27.
2. Тошев, С. (2020). Ўзбекистоннинг совет мустамлакачилиги даври тарихини ўрганишда турк тилидаги манбаларни ўрни. In Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқотлари методлари ва методологиясининг долзарб масалалари (pp. 121-127). 125
3. E. Perrot, Effective Teaching. New York: Longman. (2012); B. Laar, R. Blatchford, D. Winkley, G. Badman, R. Howards, Effective Teaching. Oxford: National Primary Center. – P.108.



TARIX FANINI O‘QITISHDA ILMIY PEDAGOGIKANING O‘RNI

Nazarov Qudrat

Xorazm viloyati Urganch tumani
43-sonli maktabning Tarix fani o‘qituvchisi
Telefon:+998975100086

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarix fanini o‘qitishning o‘ziga hos xususiyatlari va bu fanni o‘rgatishda ilmiy pedagogikaning o‘rnini ko‘rib chiqiladi. Shuningdek ilmiy pedagogikaning turli metodlari va zamonaviy metodlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: pedagogika, ilmiy pedagogika, gipoteza, innovasion, g‘oya, mafkura, kuzatish metodi, gipoteza qilish usuli, o‘zlashtirish, qo‘llanilish usuli.

O‘zbekistonning davlat mustaqilligini qo‘lga kiritishi tufayli xalqimizning asriy orzusi ushaldi, o‘z taqdiri va kelajagini o‘zi yaratadigan bo‘ldi. Tarixan qisqa davrda jamiyatimiz ijtimoiy siyosiy hayotining barcha sohalarida keskin burilish yasaldi. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish, faol demokratik yangilanishlarni amalga oshirish bilan bog‘liq qator islohotlar o‘tkazildi. Jumladan, ana shu buyuk o‘zgarishlarni asrlar davomida orzu qilgan xalqimizning ko‘hna tarixiga bo‘lgan munosabati tubdan o‘zgardi. Ayniqsa, bugungi murakkab globallashuv davrida ma‘naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xalqimiz ma‘naviyatini asrash va yanada yuksaltirish, yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g‘oya va mafkuralar ta‘siridan saqlash va himoya qilishda Vatan tarixini har tomonlama va chuqur tadqiq etish, birlamchi manbalarga tayanib talqin etish, kelajak avlodga haqiqiy tariximizni o‘qitish orqali ularni yuksak ma‘naviyatli shaxslar etib tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tarixni o‘qitishda ilmiy pedagogik usuldan foydalanish tushunish va ishtirok etish qobiliyatini rivojlantiradi. Har o‘quv yili boshida men o‘quvchilarimdan: “Nega biz tarixni o‘rganamiz?” degan savol bilan yuzlanaman. Javob odatda “ Biz o‘tmishdagi xatolarni takrorlamasligimiz uchun” degan javob olaman. Tarixiy voqealarning axloqiy, siyosiy va ijtimoiy murakkabliklarini tushunish – bu jamiyatni hozirgi vaqtda yaxshiroq qaror qabul qilishimizga yordam beradi. Lekin qanday qilib biz o‘z sinfimizda real hayotda bunday ta‘limni targ‘ib qila olamiz? Tarixiy so‘rovlaridan foydalanish, xuddi ilmiy uslub singari, tushunish va jalb qilishni yaxshilaydi. Tarix fanini o‘qitishda bir nechta pedagogik metodlardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi. Ushbu metodlar quyidagilardan tashkil topgan:

Bashorat qilish usuli. Biz tez -tez gipoteza so‘zi faqat fan darsida ishlatiladi deb o‘ylaymiz, lekin tarixchilar ham bashorat qilishadi. Tarix darsini tezis bilan boshlashning o‘rniga, tarixiy gipoteza bilan tadqiqot faoliyatini boshlang. Savol- javobni sinf uchun tuzgandan so‘ng, har bir o‘quvchi individual gipotezani yozadi. Biz yaqinda Fuqarolar urushi bo‘limini tugatganimiz sababli, ko‘plab o‘quvchilar: “Qayta qurishni ma‘qullaydigan shimoliy shtatlar ko‘proq yodgorliklar yaratdilar, chunki ular urushda g‘alaba qozonganlarini eslashni xohlashdi”, deb taxmin qilishdi. Ba‘zi o‘quvchilar o‘z bashoratlarini Sharlottesvildagi tartibsizliklar haqidagi bizning hozirgi voqeamiz bilan bog‘lab, shunday taxmin qilishdi: “Qayta tiklanishni ma‘qullamagan janubiy shtatlar o‘z yodgorliklarini yaratdilar, chunki ular halok bo‘lgan askarlarini ulug‘lashni xohlashdi. Shimoliy shtatlar ko‘p yodgorliklar qurishni xohlamaydilar, chunki Shimoliy urushda g‘alabani nishonlashdan ko‘ra, mamlakatni birlashtirishga e‘tibor qaratmoqchi edi”.

Bashorat qilish o‘quvchilarni tarixiy empatiyani o‘rganishga undaydi. Turli odamlar tarixiy voqeani qanday qabul qilishdi? Nima uchun? O‘quvchilar dalilni isbotlovchi ma‘lumotni topishga urinishning o‘rniga, faraz yaratib, dalillar ularga nima deydi, deb hayron bo‘lishadi: Ma‘lumotlar mening bashoratimga to‘g‘ri keladimi yoki menga oldindan aytmagan narsani ko‘rsatadimi? O‘quvchilarning dalil topishga bo‘lgan faolligini oshirish uchun o‘qituvchilar o‘quvchilardan o‘z manbalarini topishni so‘rashlari mumkin. Masalan, mening sinfimdagi o‘quvchilar guruhi fuqarolar urushi yodgorliklari qayerda joylashganligini tushunishga dalil topdilar. Ma‘lumot yig‘ish o‘quvchilarga manbalar bilan shug‘ullanish va o‘z farazlari bilan bog‘liqlikni ko‘rish imkonini beradi. Bu so‘rovga asoslangan ssenariyda javob sir bo‘lib qoladi va o‘quvchilar eski xulosalarni takrorlash o‘rniga yangi xulosalar chiqarishga sarmoya kiritadilar.

Ma‘lumotlarni tahlil qilish va xulosalarni ishlab chiqish usuli. Tarix o‘qituvchilari sifatida biz o‘quvchilarni manbalarni tahlil qilishga va manba tahlilini tarixiy kontekst bilan bog‘lashga



ko'nikamiz. Men o'z o'quvchilarim bilan ma'lumotlarni tahlil qilish iborasini ishlatishni yaxshi ko'raman, chunki bu ularni ma'ruzada aytganlarimni takrorlashga xalaqit beradi va ularni tarixchilarga aylantiradi, ular haqiqiy tarixiy tadqiqot deb hisoblaydi. Masalan, mening ko'plab o'quvchilarim shtatlar fuqarolar urushi yodgorliklari qurilgan bir vaqtda Jim Krou qonunlarini qonuniylashtirganini bilishdi. Tarixni o'rgatish uchun ilmiy-pedagogik usuldan foydalanish - moslashuvchan, takrorlanadigan yondashuv. Bu o'quvchilarni tanqidiy fikrlash va baholashga jalb qilgani uchun, bu usul tarix darsining yakuniy natijasi esda qoladigan narsa emas, balki nima qilish kerakligi haqiqatini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. –T.:O'zbekiston, 1999.
2. Oblomurodov N., va boshqalar. O'zbekiston tarixi. O'quv qo'llanma. –T.: Yangi asr avlodi, 2011.
3. Usmovov Q. va boshqalar. O'zbekiston tarixi. Darslik. –T.: Sharq, 2007.



JAHON TARIXI FANINI O'RGATISHDA CHET EL ZAMONAVIY METODLARIDAN FOYDALANISH

Xudayberdiyev Jahonbek Qaxramonovich

Navoiy viloyati, Xatirchi tumani
2- umumiy o'rta ta'lim maktabining
tarix fani o'qituvchisi
+998933199315

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada jahon tarixi va O'zbekiston tarixi fanlarini o'qitish jarayonida chet el tajribalarida qo'llanuvchi metodlardan foydalanish haqida fikr yuritiladi. Chet el tajribalari tarix fanida qo'llanilishi misollar bilan aytib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:** “Zapusk texnologiyasi”, “Avtofokus” metodi, “Diqqatni jamlash” metodi, “Sayohat” metodi.*

Bugungi kun ta'limi zamonaviy pedagogdan zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni, o'z ustida tinimsiz ishlashni, ta'lim tizimi taraqqiy etgan davlatlar tajribasini o'rganib ularni o'z darslarida qo'llashni talab etadi. Bugun o'quvchilarni an'anaviy metod va texnologiyalar bilan jalb etish, darsda sog'lom muhitni yaratish, fanga o'quvchini qiziqitira olish dolzarb muammoga aylandi. Endi har qanday darsni samarali tashkil etish uchun jahonning ta'lim tizimi eng rivojlangan mamlakatlari: Finlandiya, Buyuk Britaniya, Yaponiya kabi bir qator davlatlar ta'lim tizimini o'rganib ular tajribasidan unumli foydalanish har bir pedagog oldidagi muhim vazifaga aylandi.

“Zapusk texnologiyasi” metodi Buyuk Britaniyaning o'qitish texnikalari orasida eng samaralisi va mashhuri hisoblanadi. Ushbu metod orqali pedagog dars muhitini o'zi istagan atmosferada olib bora oladi. Bu metodning yana bir muhim jihati shundaki, o'quvchilarni boshqarish ham pedagog uchun yanada osonlashadi. Bu texnologiyaning mohiyati shundaki, darsga kirdingiz va o'quvchilarga bugungi mavzuga aloqador jumboqli savol bering. Bu savolingiz shunchalik qiziq bo'lsinki, o'quvchilar ushbu jumboqning javobini bilishga oshiqsin. Aytaylik, 9-sinf Jahon tarixi darsida “Buyuk Britaniya” mavzusini o'tmoqchisiz. O'quvchilarga dars boshlanishida: “Buyuk Britaniya tabiiy boyliklari haqida bilasizmi?” – deb savol bering. O'quvchilar bir muddat ushbu jumbog'ingizni muhokama qilishsin. Javobni bilishga qiziqish darajasiga yetishgan paytda siz yangi mavzuni o'tishga kirishing va javobini dars davomida aytishingizni bildiring. O'quvchilar butun dars davomida mavzuni katta ishtiyoqda tinglashadi va dars oxirigacha barcha o'quvchining diqqatini ushlab tura olasiz.

“Avtofokus” metodini tarix darsida qo'llashimiz ko'proq maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu metod Finlandiya o'qitish tizimida eng ko'p qo'llanadigan metodlardan biri sanaladi. Ushbu metodni yangi mavzuni tushuntirish jarayonida qo'llashimiz mumkin. Mavzu tushuntirish jarayoniga qadar o'quvchilarga turli rangdagi kartochkalar (oq, qora, sariq, qizil...) tarqatiladi va mavzu tushuntirish jarayonida o'quvchilar diqqatli bo'lishini har bir aytgan ma'lumot qaytadan so'ralishi haqida ogohlantiriladi. Yangi mavzuni tushuntirish jarayonida kutilmaganda to'xtab sariq kartochkali o'quvchilarni o'rnidan turg'azasiz va o'zingiz aytgan ma'lumotlarni istalgan o'quvchidan takrorlashini so'raysiz. Bu metod har bir o'quvchini darsga diqqat bilan quloq solishini ta'minlaydi va siz ularni o'zingizga qarata olasiz.

“Diqqatni jamlash” metodi Yaponiya ta'lim tizimida samarali qo'llaniladigan metodlardan biri sanaladi. Bu metodni biz istalgan fanda uy vazifasini so'rash jarayonida foydalanishimiz mumkin. Bu metodning mohiyati shundaki, o'quvchilarga daftariga berilgan mavzu, vazifa yuzasidan bitta to'g'ri, bitta noto'g'ri ma'lumot yozish topshiriladi. O'quvchilar yozib bo'lgach ularning daftarlari partadoshining daftari bilan almashtiriladi. O'quvchilar partadoshi yozgan ma'lumotning qaysi biri to'g'ri, qaysi biri noto'g'ri ekanligini topishlari kerak bo'ladi.

Masalan: 9-sinf o'quvchilariga “Buyuk Britaniyaning ichki siyosati” mavzusini o'qib kelish vazifasi berilgan. O'quvchilar daftariga mavzu haqida bitta to'g'ri:

Buyuk Britaniya ichki siyosatida keskin muammo – bu Irlandiya muammosi edi; bitta noto'g'ri: Ko'mir qazuvchilar 8 hafta ish tashlash e'lon qilishdi.

Bu usul o'quvchini darsga mas'uliyat bilan yondashishga, mustaqil fikrlashga harakat qilishiga undaydi. Bu metod orqali o'quvchi uyga vazifani qay darajada o'zlashtirganini aniqlash va uning fikrlash qobiliyatini o'stirishga yordam berishimiz mumkin.



Bugungi kunda ta'lim tizimida samarali natijaga erishish mushkul vazifaga aylandi. Bu pedagoglardan ijodkorlik mahoratini ham talab etmoqda. Har bir pedagog o'quvchi bilan yuzlashishdan avval dars rejasini tuzib chiqsa, dars davomida qanday metod va texnologiyalardan foydalanishini oldindan belgilab olsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bugungi kun zamonaviy o'quvchisi zamonaviy fikrlarga ega. Hozir o'quvchidan kelajakdagi rejalarini so'rasangiz 10 tadan 9 tasining rejaları orasida “chet elga sayohat” rejasi mavjud. Siz buni inobatga olgan holda “Sayohat” metodidan foydalaning. Masalan, darsga dunyoning mashhur shaharlari suratini olib kiring va ularni doskaga osib qo'ying. O'quvchilarga yopishadigan kartochkalar tarqatib unga bugungi mavzudan xotirasida qolgan biror ma'lumot yozishini so'rang. O'quvchi yozgan ma'lumotini sinfdoshlariga o'qib bersin va o'zi yoqtirgan shahar surati ustiga kartochkani yopishtirib ketsin. Shu tariqa doskadagi suratlar ustida ko'plab kartochkalar paydo bo'ladi. Siz o'quvchilardan qaysi sinfdoshi qanday ma'lumot aytgani va qaysi shaharga “sayohat” qilganini so'rang. Ular maroq bilan bu vazifani ado etishadi. Bu metod mavzuni mustahkamlashda qo'l keladi. “Sayohat” metodi orqali o'quvchi diqqati oshadi, dars qiziqarli o'tadi va mavzu o'quvchi xotirasidan mustahkam o'rin oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. E.M. Mahkamov, “ O'zbekiston va Finlandiya umumiy o'rta ta'limidagi yutuq va kamchiliklar”
2. J. Syundikovich, “ Tarix o'qitish metodikasi”



**XORAZM VOHASI ME’MORIY YODGORLIKLARINI O’RGANILISHI
BORASIDAGI AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR**

Djabborova Adolat -

Urganch davlat pedagogika instituti
“Ijtimoiy gumanitar fanlar filologiya
va san’at” kafedrasida oqituvchisi
Telefon: +99897 511 60 10

Anostasiya. Maqola Xorazm hududidagi me’moriy yodgorliklar saqlanib qolish va o’rganias, shuningdek mustaqillik yillarida bu memoriy yodgorliklarni ta’mirlash, saqlash, o’rganish ishlariga katta e’tibor qaratilgan hamda amalga oshirilgan ishlar yoritilgan.

Kalit so’zlar. Xorazm, tarixiy, me’moriy, yodgorlik, arxeologiya, majmua, qal’a, xaroba, inshoot, obida.

Kirish. Qadimiy boy tarixga ega bo’lgan Xorazm hududida jahonga mashhur me’moriy yodgorliklar saqlanib qolgan. Mustaqillik yillarida bu memoriy yodgorliklarni ta’mirlash, saqlash, o’rganish ishlariga katta e’tibor qaratildi va bu borada O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 4 oktyabrdagi “Moddiy madaniy merosning ko’chmas mulk ob’ektlari milliy ro’yxatini tasdiqlash to’g’risida”gi №846-son qarori qabul qilindi. Bu qaror ilovasida davlat ro’yxatiga olingan tarixiy, madaniy va arxeologik yodgorliklarning 37 tasi arxeologiya yodgorliklari tashkil qiladi¹. Ular Xiva shahri Ichon-qal’aning g’arbiy qismi o’rtasidagi g’ishtdan qurilgan devori, Ichon-qal’a devori, Oq Shayx bobo qasri, qo’rg’oni, Xiva qudug’i, Hazorasp qal’a devori, Xumbuztepa (Qoratosh), Chingiz tepa majmuasi, Sandikli bobo shaharchasi, Tuproqqal’a shaharchasi (Hazorasp tumanida), Sartarosh shaharchasi, Voyongan bobo qishlog’i, Qiyot shaharchasi, Tuproqqal’a shaharchasi (Shovot tumani), Olma otishgan majmuasi, Ostona qishlog’i, Qalajiq majmuasi (Dovud qal’a), Meshekl qal’alarida olib borilgan tadqiqotlar natijasida qo’lga kiritilgan ashyoviy dalillar ajdodlar madaniyatining nechog’lik chuqur asosga ega ekanligini ko’rsatdi.

Masalaning mazmuni. Xorazm viloyatida 130 dan ortiq tarixiy-me’moriy inshootlar saqlanib qolgan bo’lsa-da ularning aksariyat ko’pchiligi Xiva shahri va uning atrofida joylashgan. Tarixiy Xiva shahri Deshon qal’a (tashqi shahar) va Ichan qal’a (ichki shahar)dan iborat. Hozirgi kunda Ichan qal’a devorlari to’liq saqlanib qolgan. Ichan qal’aning umumiy maydoni 26 gektar bo’lib, u yerda 56 ta tarixiy me’moriy inshoot joylashgan. 1967 yilda Xiva shahrining “Ichan qal’a” qismi Markaziy Osiyoda birinchi bo’lib tarixiy me’moriy qo’riqxonada deb e’lon qilingan. Xiva shahri 1990 yil 12 dekabrda YuNESKOning Kanadada bo’lib o’tgan 14-sessiyasining maxsus qarori bilan Markaziy Osiyoda birinchi bo’lib “Butun jahon merosi” sifatida ro’yxatga olingan².

XX asrning 80-yillaridan boshlab janubiy Xorazmda keng ko’lamda arxeologik tadqiqot ishlarini olib borayotgan tadqiqotchilar M.Mambetullaev, va G. Xodjaniyozov³ lar qadimgi Xorazmning antik davr yodgorliklarini o’rganish ishiga katta hissa qo’shdilar va qadimgi Xorazm shaharsozligi va moddiy madaniyatiga oid boy arxeologik ma’lumotlarni qo’lga kiritdilar.

XX asrning oxirlari va XXI asrning boshlarida Xorazm vohasida M.M.Mambetullaev, G’ X.Xodjaniyozov, S.R.Baratov, Q.Sobirov, Sh. Matrasulov, B. Sadullaev⁴ tadqiqotlari asosida muhim natijalar qo’lga kiritildi.

1 O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 4 oktyabrdagi “Moddiy madaniy merosning ko’chmas mulk ob’ektlari milliy ro’yxatini tasdiqlash to’g’risida”gi Qonuni/Qonun xujjatlari mahlumotlari milliy bazasi 2019 yil 5 oktyabr (www.lex.uz).

2 Yusupov X., Abdurasulov M., Bobojonov D. Xiva shahriga sayohat (yo’l ko’rsatkich). – Urganch: Quvanchbek-Mashhura, 2018. – B.3-4.

3 Xodjaniyozov G.X., Yagodin V.N., Xelms S.U., Maklaren B.K. Raskopki na Akshaxankale // Arxeologicheskie issledovaniya v Uzbekistane 2000 g. – Samarkand, 2001. – S. 175-180; Xodjaniyozov G’. Qadimgi Xorazm mudofaa inshootlari. – Toshkent: O’zbekiston, 2007. – S. 180.

4 Mambetullaev M.M., Abdirimov R. Issledovanie Xazoraspa. “Kulg’turnoe nasledie Sredney Azii”, Toshkent: 2002; Mambetullaev M., Yusupov N., Xojaniyozov G.K. Issledovaniya v Xorezmskoy oblasti // AO – 1973. M.: Nauka, 1979; Mambetullaev M., Raskopki oboronitelg’nqx soorujeniy Xivq // Vestnik KK FAN Uz. 1992. № 4.Xodjaniyozov G’. Qadimgi Xorazm mudofaa inshootlari. – Toshkent: O’zbekiston, 2007;.



Mamlakatimizda ayniqsa keyingi yillarida tariximizni xolisona o'rganish uchun keng imkoniyatlar yaratilib, ularni keng ommaga yetkazish olimlar oldiga dolzarb muammo qilib qo'yildi. Ayniqsa, tarixiy obidalarga boy shaharlarimizning barpo qilinish tarixlarining o'rganilishi, Xorazm viloyatidagi arxeologik yodgorliklar rasmiy ro'yxati tuzilishi muhim ahamiyat kasb etdi. Ular tegishli huquqiy hujjatlar asosida davlat himoyasiga olingan.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda dunyoning yetakchi olimlari Frantsiya, Germaniya, Yaponiya, Italiya, Polsha va Avstraliya kabi davlatlardan kelib, o'zbek olimlari bilan hamkorlikda arxeologik qazishma ishlarini olib bordilar va bu ishlar davom ettirilmoqda.

Xorazm viloyatining Xiva, Hazorasp, Xonqa, Shovot, Yangiariq, Qo'shqo'pir, Bog'ot, Urganch va boshqa tumanlarda saqlanib qolgan tarixiy obidalarni ta'mirlash, obodonlashtirish ishlari mustaqillikdan keyingi yillarda keng miqyosda olib borildi.

Xulosa. Xorazm vohasining deyarli barcha qishloqlarida ko'hna qal'a xarobalarini uchratish mumkin. Mahalliy aholi tepalikka aylangan tarixiy yodgorliklarga ularning o'tmishi bilan bog'liq holda nom berishgan va shu asosda o'tmish tarixiga oid ko'plab afsonalar, rivoyatlar hamda hikoyalar dunyoga kelgan, bu afsonalar esa avloddan – avlodga o'tib kelmoqda. Bu afsonalar yoshlarda o'tmishga ehtirom va ota-bobolar ruhiga xurmat hissini tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.



TARIX FANINI O'RGANISHDA SAMARADORLIKNI TA'MINLOVCHI METODLAR

Jo'raqulova Dilshoda Shaxriddin qizi

Navoiy viloyati, Xatirchi tumani 2-umumiy
o'rta ta'lim maktabining tarix fani o'qituvchisi
+99893 311 92 22

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarix fanlarini o'qitish jarayonida chet el tajribalarida qo'llanuvchi metodlardan foydalanish haqida fikr yuritiladi. Chet el tajribalari o'zbek maktablarida qo'llanilishi misollar bilan aytib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:** “Kaizen falsafasi”, “Vark modeli”, metod, model, vizual, knestetik.*

Har qanday millat yuksalishi uchun u, avvalo, o'z tarixini bilmog'i lozim. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarix fanini o'rgatish samaradorligiga erishish uchun bir qator metodlarni qo'llashimiz mumkin.

Ikkinchi Jahon urushidan keyin Yaponiyaning taraqqiyot yo'li sifatida ishlab chiqilgan “Kaizen” (continuous improvement) falsafasi bugunga kelib barcha sohalarga, qolaversa, shaxsiy rivojlanish uchun ham foydalanib kelinmoqda. Kaizen jarayonini faqat to'rt bosqichga qisqartirish mumkin. Har bir qadam nimani anglatishini qisqacha ko'rib chiqamiz.

Maqsadingizni va unga qanday erishish mumkinligini aniqlang, ya'ni oldindan rejalashtiring. Masalan, men qisqa muddatda tarix fanini o'rganmoqchiman.

Rejani bajarib va uning bajarilishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan barcha o'zgarishlarni amalga oshiring, ya'ni doimiy talabchanlikni yo'qotmang. Masalan, bir kunda 3-4 mavzuni o'rganing, mustahkamlang va amalda qo'llang.

Natijangizni tekshiring, baholang va takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlang. Oldingi bosqichlarda erishilgan narsalarga qarab doimiy tuzatishlar kiritib boring.

Kaizen falsafasining eng asosiy ma'nosi – Siz doimiy ravishda maqsadingiz uchun kichik nimanidir amalga oshirib boring. Bu metod, ayniqsa, tarixiy sanalarni yod olib bilimni oshirmoqchi bo'lganlar uchun juda samarali hisoblanadi. Zero, tarixiy sanalarni yod olish – tarix fanini o'rganishning tamal toshidir.

Vanderbilt universiteti ma'lumotlariga ko'ra, 70 dan ortiq turli xil uslublar mavjud, ammo hozirgacha eng mashhurlari Vark modelidagi to'rtta uslubdir.

Bu uslublar orqali tarix fanini o'rganish tez va oson amalga oshadi.

Vizual (kosmik) uslub – o'quvchilar ko'rish orqali yaxshiroq o'rganadilar. Bu uslubda ko'proq rasm, sxema va jadvallar qo'l keladi. Biror rasmni bo'laklarga bo'ling va har bir bo'lagiga tarix fanidagi biror matn qismlarini joylashtiring. O'quvchi bo'laklarga bo'lingan rasmni tiklasin va shu orqali undagi matn ham tiklanadi.

Eshitish – o'quvchi eshitish orqali yaxshiroq o'rganadi. Tarix fanida o'quvchilarga mavzuga doir ma'lumotlar aytting. O'quvchi nutqini telefonga yozing va ularni o'zlariga eshittiring. O'quvchilarning xatolarini sinfdoshlari topishsin. Yoshlar tengdoshining maslahatini yaxshiroq qabul qilishadi.

O'qish-yozish – o'quvchilar o'qish va yozish orqali eng yaxshi narsani o'rganishadi. Bu uslub o'qish va yozishni xush ko'ruvchilar uchun samaraliroq bo'ladi.

Kinestetik (jismoniy harakat) – o'quvchilar harakat qilish va bajarish orqali yaxshiroq o'rganadi. Bu uslubda ko'proq harakatli o'yinlar orqali mavzu mustahkamlanadi. O'quvchilar uchun bu uslub juda qiziqarli va maroqli. Ularni dars boshlashdan oldin mavzuga diqqat qilishi va dars so'ngida qiziqarli mashg'ulot ularni kutayotgani haqida ogohlantiring. Shunda o'quvchi butun dars davomida sizni butun vujudi bilan tinglaydi.

Zamonaviy pedagog bugungi kun talabiga mos bo'lishi uchun tinimsiz izlanishda bo'lishi shart. Tarixni o'rganish bugun zamon talabi ekan uni qanday qilib samarali va tez o'zlashtirish kerakligi haqida barchamiz o'ylashimiz va chet el tajribalaridan ham foydalanmog'imiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. J. Suyundikov “ Tarix o'qitish metodikasi”
2. M. Jalilov “ Metodika”
3. N. Rahmatullayev “ Pedagogika”



**TARIX VA TARBIYA DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION
YONDASHUV**

Akbarova Nafisaxon Ikromovna

Fargʻona viloyati Oʻzbekiston tumani
53- maktab Tarbiya fani oʻqituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarix va tarbiya darslarida qoʻllash mumkin boʻlgan pedagogik texnologiyalar, kasbiy soha, oʻquvchilarning kasbga qiziqtirish, interfaol usullar va ulardan namunalari keltirilgan.

Kalit soʻzlar: pedagogik texnologiyalar, rolli oʻyin, ishbop oʻyin, assessment, keys-stady.

Ta'lim muassasalari tizimida tarix va tarbiya fanlarini oʻqitish mazmunini kasbiy soha yoʻnalishlarining mohiyatiga mos shaklda rivojlantirish, ya'ni 10 – 11 sinflarning kasbiy qiziqishidan kelib chiqqan holda qoʻshimcha ma'lumotlar kiritilishi maqsadga muvofiqdir.

Oʻqitish jarayonini kasbiy yoʻnaltirish - berilayotgan bilimlarni 10 – 11 sinflarning kasbiy yoʻnalishidan kelib chiqib darsni tashkil etishdir.

Tarix fanlarini oʻqitishda tarixiy bilim, tushuncha va tasavvurlarni egallash, ularni izohlash, koʻnikma va malakani shakllantirish orqali oʻquvchilar intellektual qobiliyatlarini jadal oʻstirishni, ularga kasb-hunarga yoʻnaltirilgan bilim berishni ta'minlash va kasb-hunar kolleji oʻquvchilarining kasb-hunarga qiziqishini oshirish maqsad qilib olingan. Tarix fanlarini oʻqitishning oʻziga xos xususiyatlari shundan iboratki, oʻquvchilarning tanlagan kasbi bilan bogʻliq boʻlgan tarixiy bilim, tushuncha, tasavvurni yanada rivojlantirish hamda oʻzining sohasiga doir tarixiy bilimlar bilan tanishtirish ularni hayotga va kasbiy faoliyatiga tatbiq etishni oʻrgatishdir.

“ROLLI OʻYIN” - ta'lim oluvchilar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali koʻrsatib beruvchi oʻyindir.

Rolli oʻyinlarning ishbop oʻyinlardan farqli tomoni baholashning olib borilmasligidadir. Shu bilan birga “Rolli oʻyin”da ta'lim oluvchilar ta'lim beruvchi tomonidan ishlab chiqilgan senariydagi rollarni ijro etish bilan kifoyalanishsa, “Ishbop oʻyin”ida rol ijro etuvchilar ma'lum vaziyatda qanday vazifalarni bajarish lozimligini mustaqil ravishda oʻzlari hal etadilar.

“Rolli oʻyin”ning tuzilmasi

“Rolli oʻyin” ining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi mavzu boʻyicha oʻyinning maqsad va natijalarini belgilaydi hamda rolli oʻyin senariysini ishlab chiqadi.

2. Oʻyinning maqsad va vazifalari tushuntiriladi.

3. Oʻyinning maqsadidan kelib chiqib, rollarni taqsimlaydi.

4. Ta'lim oluvchilar oʻz rollarini ijro etadilar. Boshqa ta'lim oluvchilar ularni kuzatib turadilar.

5. Oʻyin yakunida ta'lim oluvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Kuzatuvchi boʻlgan ta'lim oluvchilar oʻz yakuniy mulohazalarini bildiradilar va oʻyinga xulosa qilinadi.

“ISHBOP OʻYIN” - berilgan topshiriqlarga koʻra yoki oʻyin ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan har xil vaziyatdagi boshqaruvchilik qarorlarini qabul qilishni imitatsiya qilish (taqlid, aks ettirish) hisoblanadi.

Oʻyin faoliyati biron bir tashkilot vakili sifatida ishtirok etayotgan ishtirokchining hulq-atvori va ijtimoiy vazifalarini imitatsiya qilish orqali beriladi. Bir tomondan oʻyin nazorat qilinsa, ikkinchi tomondan oraliq natijalarga koʻra ishtirokchilar oʻz faoliyatlarini oʻzgartirish imkoniyatiga ham ega boʻladi. Ishbop oʻyinda rollar va rollarning maqsadi aralashgan holda boʻladi. Ishtirokchilarning bir qismi qatʼiy belgilangan va oʻyin davomida oʻzgarmas rolni ijro etishlari lozim. Bir qism ishtirokchilar rollarini shaxsiy tajribalari va bilimlari asosida oʻz maqsadlarini belgilaydilar. Ishbop oʻyinda har bir ishtirokchi alohida rolli maqsadni bajarishi kerak. Shuning uchun vazifani bajarish jarayoni individual-guruhli harakterga ega. Har bir ishtirokchi avval oʻzining vazifasi boʻyicha qaror qabul qiladi, soʻngra guruh bilan maslahatlashadi. Oʻyin yakunida har bir ishtirokchi va guruh erishgan natijalariga qarab baholanadi. Quyida “Ishbop oʻyin”ning tuzilmasi keltirilgan.

“Ishbop oʻyin”ning tuzilmasi

Ishbop oʻyin”ning bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi mavzu tanlaydi, maqsad va natijalarni aniqlaydi. Qatnashchilar uchun



yo‘riqnomalar va baholash mezonlarini ishlab chiqadi.

2. Ta’lim oluvchilarni o‘yinning maqsadi, shartlari va natijalarni baholash mezonlari bilan tanishtiradi.

3. Ta’lim oluvchilarga vazifalarni taqsimlaydi, maslahatlar beradi.

4. Ta’lim oluvchilar o‘z rollari bo‘yicha tayyorgarlik ko‘radilar.

5. Ta’lim oluvchilar tasdiqlangan shartlarga binoan o‘yinni amalga oshiradilar. Ta’lim beruvchi o‘yin jarayoniga aralashmasdan kuzatadi.

6. O‘yin yakunida ta’lim beruvchi muhokamani tashkil etadi. Ekspertlarning xulosalari tinglanadi, fikr-mulohazalar aytiladi.

7. Ishlab chiqilgan baholash mezonlari asosida natijalar baholanadi.

Har bir rolni ijro etuvchi o‘z vazifasini to‘g‘ri bajarishi, berilgan vaziyatda o‘zini qanday tutishi kerakligini namoyish eta olishi, muammoli holatlardan chiqib ketish qobiliyatini ko‘rsata olishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shodiyorov tarix fanini o‘qitish metodikasi majmua
2. Davlatov tarbiya darslarini tashkil etish usllari majmua



О‘QUVCHILARDA TARIXNI BILISH ORQALI O‘ZLIKNI ANGLATISH USULLARI

Egamberganova Oygul Xaytbayevna
 Xonqa tumani 33-son maktab o‘qituvchisi
 Telefon: +998 (91) 570 96 97
 oygul.xaytbayevna_33@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola o‘quvchilarda tarixni bilish orqali o‘zlikni anglatish haqida.

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo, Zarafshon, Farg‘ona vodiysi, Murg‘ob daryosi, qadimgi davr madaniyati.

Mavoraunnahr Markaziy Osiyo xalqlari uzoq tarixga egadir. Eramizdan avvalgi I ming yilliklarda bu o‘lkada, yunon manbalarida ko‘pincha Skif(sak)lar deb nomlangan xalqlar istiqomat qilgan. Lekin, aholi o‘zi yashagan joyining nomiga qarab turlicha atalgani ham adabiyotlarda keltirilgan. Masalan, Amudaryo quyisida yashaganlar xorazmliklardir; Zarafshon vodiysida yashaganlar sug‘dlar; Murg‘ob daryosi vodiysida yashaganlar marg‘iyonlar; Farg‘ona vodiysida yashaganlar –parkanlar kabi nomlar bilan ma‘lum bo‘lgan.

Markaziy Osiyoning shu vodiylarida boshlang‘ich madaniyat markazlari vujudga kelgan. Eramizdan avvalgi V-VI asrlarga kelib bu o‘lkalar Eron davlati tomonidan bosib olingan va shu davrda eng yirik dinlardan - Zardushtiylik shakllangan. Taxminan shu davrlardan boshlab, Markaziy Osiyoda shaharlar va shahar madaniyati ham tashkil topib bordi.

Eramizdan avvalgi IV asrga kelib Markaziy Osiyoning Aleksandr Makedonskiy tomonidan bosib olinishi natijasida, bu yerda yunon va yerli xalqlarning qorishgan davlatlari vujudga keldi. Yerli xalqlar madaniyatiga, yunon madaniyati, afsonalari ma‘lum darajada ta‘sir ko‘rsatdi va aksincha, xalqimiz hayoti, afsonalari haqida ma‘lumotlar, qadimgi yunon mualliflarining asarlariga kirib bordi.

Masalan, Kliment Aleksandrskiy, Ksenofont, Strabon, Ptolomey, Geredot asarlarida qadimgi xalqlarimizdagi turli madaniy – ma‘naviy qadriyatlar, xalq qahramoni To‘maris, Spitamen, Shiroq haqida ma‘lumotlar va afsonalar keltiriladi. Bu davrda Markaziy Osiyoda keng tarqala boshlagan Zardushtiylik sof din bo‘lib qolmasdan o‘z davri ma‘naviyatining eng muhim yo‘nalishlarini tashkil qildi, o‘sha davr xalqining madaniyati, ma‘naviyati urf-odatini axloqi kabi masalalarni o‘z ichida aks ettiradi va ularga ham ta‘sir ko‘rsatadi. Zardushtiylikning asosiy qoidalari ayrim mualliflarning ta‘kidlashicha Xorazmda yaratilgan “Avesto” da o‘z ifodasini topgan.

Qadim kitoblarda ayon tarixing,
 Yovlar ham tan bergan so‘zga mushtarak.
 Muqaddas “Avesto” ichra ta‘rifing,
 Axuramazdaning mehridan darak.!
 Azizim Xorazm-go‘zal Xorazm!

Zardushtiylik dastlab mehnatkash xalqning axloqiy qoidalarini o‘zida ifodalagan bo‘lsa, keyinroq ruhoniylar qo‘lida siyosat yurguzishning asosiy quroliga aylanib qoldi. Bu davrga kelib Xorazmdagi yerli xalqning davlatchiligi shakllana boshladi. V-VI asrlarga kelib hukmron ruhoniylarga, zardushtiylikka qarshi qaratilgan, Mazdak boshlab bergan, mazdakizm ta‘limoti shakllandi. Bu ta‘limot dehqonlarni ularning huquqlarini himoya etib, tenglik, adolat o‘rnatishga xizmat qildi.

Qadimgi davr madaniyati, ma‘naviyati, jumladan, axloq, ma‘rifat, ta‘lim tarbiya haqidagi fikrlar xalq og‘zaki adabiyotida folklorda turli xalq an‘analarida ham o‘z aksini topib kelgan.

Go‘ro‘g‘li, Alpomish, Rustam haqidagi dostonlarda xalqimizning qadimgi urf-odatlari, ruhiyati, xulq - odoblarining ifodasini uchratishimiz mumkin. Bunday ma‘lumotlar qadimgi sug‘d, xorazm, turkiy yozuvlar namunalarida saqlanib qolgan manbalarda ham uchraydi.

VIII asrga kelib Markaziy Osiyoni arablar istilo qildilar va ular o‘zlari bilan yangi din, Islomni, olib keldilar va bosib olingan xalqlar orasida turli yo‘llar bilan shu dinni tarqata boshladilar. Albatta, Markaziy Osiyoni arablar tomonidan bosib olinishi osonlik bilan bo‘lmadi. Ko‘plab qarshiliklar bo‘lib o‘tdi. Lekin, VIII asr oxiriga kelib Markaziy Osiyoda arab xalifaligining hukmronligi va islom dini uzil-kesil o‘rnatildi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, tarixiy ongini yuksaltirish, tarixiy bilim va tafakkurini shakllantirish, tarixiy joylarga ko‘proq sayohatlar tashkil qilish, bizning ota–bobolarimiz,



o‘tmishimiz qanday bo‘lganligini, ota-bobolarimiz mustaqillik uchun qanday kurashlar olib borganliklarini, mustaqilligimizning qadriga yetishi, uni asrab avaylashga, ularni vatanga mehr-muhabbatli qilib tarbiyalash, tarixiy madaniy, ma’naviy merosimizni asrab avaylashga o‘rgatishimiz, maktablarda turli tarixiy tadbirlar o‘tkazish bularning tarixiy ongini rivojlantirishning muhim omillari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O‘zbekiston. 2017, 2018, 2019.
2. Xayrullayev M.M. Ma’naviyat yulduzlari. T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999.
3. Ma’rifat yog‘dusi. Ilmiy-uslubiy, adabiy-badiiy jurnal. 2009. 3-son



RANGLI QORAKO'L UCHUN YETAKCHI FERMA

Qosimov Abdisattor Choriyevich

Termiz davlat universiteti Jahon
tarixi kafedrası tadqiqotchisi,
+998915803366 abdisattorq@gmail.com,

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati Gagarin nomidagi naslchilik zavodi mamlakatimizda birinchilardan bo'lib rangli qorako'l qo'ylarini ko'paytirishga ixtisoslashgani, naslchilik zavodi qanday natijalarga erishgani, Janubiy o'zbek qo'ylarining muvaffaqiyatli yaratilgani xususida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Naslchilik, qorako'l, chorvachilik, "Gagarin" qo'ylari, zootexniklar, Bo'z qo'ylar, naslchilik zavodi, mo'yna, seleksiya.

Surxondaryo viloyatidagi Gagarin nomidagi naslchilik zavodi mamlakatimizda birinchilardan bo'lib rangli qorako'l qo'ylarini ko'paytirishga ixtisoslashgan. Xo'jalik 1928-yildan buyon naslchilik bilan shug'ullanib, bo'z va qo'ng'ir qo'ylarni yaxshilash, qorako'l rangining yangi turlarini yaratishga qaratdi.

Naslchilik zavodining yutuqlari ko'pincha ko'rgazma va simpoziumlarda namoyish etiladi. 1976 yil iyul oyida "Agra-76" xalqaro qishloq xo'jaligi ko'rgazmasida (Leyptsig, Sharqiy Germaniya) SSSR pavilonida namoyish etilgan ko'k rangdagi qorako'l yuqori baholandi - Oltin medal va seleksiyadagi yutuqlar uchun 1-darajali naslchilik fermasi diplomi bilan taqdirlandi. Ushbu maqolada Gagarin nomidagi naslchilik zavodi qanday natijalarga erishgani, ish usullari va boshqa qorako'lchilik xo'jaliklarini qimmatbaho qo'chqorlar bilan ta'minlashda naslchilik zavodining o'rni haqida gapiriladi.

Avvalo, kulrang qo'ylar haqida. Qiymati va soni jihatidan ular qorako'l zotlarida qoradan keyingi ikkinchi turni tashkil qiladi. Bo'z qo'ylarning taniqli biologik hususiyati qo'zilarning o'limining ortishi bilan bog'liq. Bir xil rangdagi kulrang qo'ylarni juftlashtirish natijasida olingan yosh hayvonlarning yuqori foizi terisini olish uchun o'z vaqtida foydalanish va o'limning oldini olish uchun qo'zilarning yashovchanligini erta taxmin qilish yo'lini topish zaruratini tug'dirdi. Aynan bizning iqtisodiyotimizda 50-yillarning boshlarida ilmiy va amaliy xodimlarning birgalikdagi sa'y-harakatlari natijasida hayot qobiliyatini erta aniqlash usulini ishlab chiqish orqali bu muammo hal qilindi. Bu usul kulrang qo'ylarning bir xil rangdagi naslchilik tizimini ishlab chiqishga imkon berdi.

Butunittifoq chorvachilik instituti tomonidan ishlab chiqilgan va 1969 yilda qorako'l zoti bo'yicha Markaziy kengashda ko'rib chiqilgan ushbu tizim ma'qullandi va boshqa ixtisoslashtirilgan naslchilik xo'jaliklarida ham joriy etish tavsiya etildi. Biroq, uning rivojlanishi juda sekin ketmoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda bu tizim qimmatbaho ranglarning uzun yarim doira shaklidagi rulonli va alohida tekis jingalakli kombinatsiyasi, shuningdek, duragaylash asosida yetishtirilgan podadan keladigan kulrang qo'chqorlardan foydalanish orqali to'ldirildi.

Tizimning samaradorligi 1968 yilda tasdiqlangan bo'z qo'ylarning birinchi zavod turi – Janubiy o'zbek qo'ylarining muvaffaqiyatli yaratilgani bilan tasdiqlanadi. Bu turning zavod bahosi qorako'l mahsulotlarining yuqori sifatidagina emas, balki asosiysi, naslchilik zavodida yetishtiriladigan qo'chqorlar o'zi yetishtiriladigan barcha xo'jaliklarda bo'z va qora qorako'l navlarini oshirishdadir. Bu xo'jaliklarga Surxondaryo viloyatining yetishtirilgan kulrang qorako'l mo'ynasi sifati bo'yicha yetakchi o'rinni egallagan kolxoz va sovxozlari, shuningdek, G'uzor naslchilik zavodi, Kattaqo'rg'on naslchilik fermasi (O'zbekiston SSR), Guryevskiy (Qozog'iston SSR) kiradi va naslchilik zavodimizdagi kulrang qo'chqorlardan oqilona foydalanadigan boshqa fermer xo'jaliklari.

Bizning naslchilik xo'jaligimizdagi bo'z qo'chqorlarning ustunligi shunda bo'lganki, ular o'zining smushka xossalariiga ko'ra sinchiklab tanlab olingan va nafaqat ota-onalarning, balki uzoq avlod ajdodlarining ham rang-barangligi va rang-barangligi bo'yicha yagona tanlab olinganligi bilan izohlanadi. Bu usulni tovar xo'jaliklari uchun yosh nasldor hayvonlarni boqayotgan barcha xo'jaliklarda joriy etish zarur, deb hisoblandi. Iqtisodiyotimiz amaliyoti bu bo'z qorako'l sifatini yaxshilashning asosiy yo'li ekanligiga ishonch hosil qilindi.

1975-1976 yillarda 18 oylik o'lim darajasi kulranglar orasida 7,4 foizni va qora tanlilar uchun 7,2



foizni tashkil etgan bo'lsa, 1976 yilda har ikki rangdagi qo'zilar orasida 2,4 foizni tashkil etdi. Oddiy yillarda meteorologik va yem-xashak sharoiti bo'yicha xo'jaligimizda yosh hayvonlarning omon qolish darajasi hech qachon O'zbekistonning boshqa sovxozlaridagi o'rtacha ko'rsatkichlardan past bo'lmagan. Bo'z malika podalarida qabila uchun qoldirilgan yosh hayvonlarning soni bir necha yillar davomida 33-34 foiz darajasida yoki naslchilik xo'jaligining boshqa podalaridagidan atigi 6-8 foizga kam saqlandi.

Endi naslchilik zavodining yana bir xo'jaligida parvarishlanayotgan Surxondaryo sur qo'ylari haqida. Bu fermada yetishtirilgan, 1962 yilda tasdiqlangan va 1972 yilda SSSR naslchilik yutuqlari davlat reestriga kiritilgan yangi intrazotli zotdir. Surxondaryo surasining xususiyatlari qo'zichoq soch chizig'ining yuzaki va chuqur zonalarining rangining keskin kontrasti, ranglarning yorqinligi va jozibadorligi, hamda ularning rang-barangligidir.

Bu turdagi irsiy konstantlik qadimgi Buxoro surasida bu ko'rsatkich darajasiga ko'tarilgan va boshqa rangli turlar, jumladan, bo'z qo'ylarning doimiyigidan sezilarli darajada oshadi. Bu rangning ota-onasidan qo'zichoq surining chiqishi 93-96 foizni tashkil qildi. Uni yanada takomillashtirish ishlari muvaffaqiyatli amalga oshirildi - mavjud to'rttadan tashqari yana ikkita rang yaratildi: antrasit va qum, tekis jingalak smoshka turlari ishlab chiqildi. Suraning har bir qimmatli rangidagi qo'ylar alohida boqiladi. Naslchilik fermasi qorako'l rangining yangi o'zgarishlarini yaratish ustida ishlashni davom ettirmoqda. 1,5 ming boshga yaqin oq "Gagarin" qo'ylari suruvi yaratildi. Ijodiy seleksiyaning bu yutug'ining ahamiyatini, zotli naslchilik doirasida amalga oshirilganligi va qorako'lchilikda birinchi marta naslchilikka aylantirilganini hisobga olsak, uning ahamiyatini ortiqcha baholab bo'lmaydi bir rang (platina sur) ikkinchisiga (sof oq) va ayni paytda mutatsiyalarsiz, oq rangga ega bo'lgan qo'ylarning boshqa zotlari bilan har qanday kombinatsiyani chatishtirish mumkin. Oq qorako'lning kelajagi buyuk, chunki uni har doim istalgan rangga bo'yash mumkin, bu poda qo'ylarining oq juni gilamdo'zlik uchun ajralmas xomashyo hisoblanadi. Podaning barqarorligi nasldagi oq qo'zilarining 75 foizgacha hosildorligi bilan tavsiflanadi.

Yaxshilangan pushti rangdagi qo'ylar suruvi yaratildi, ularning soni 2 mingdan oshdi. Tanlov odatdagi pushti rangni shakllantirishda ishtirok etadigan jigarrang sochlarni bronza sura sochlari bilan almashtirish orqali amalga oshirildi, bu mo'ynaga katta yorqinlik berdi. Ushbu rangdagi qo'ylarning rangini "olmos" deb atash taklif etildi. Podaning barqarorligi pushti qo'zilarining 60 foizgacha, sura va bo'z qo'zilar bilan birga 80 foizdan ortiq chiqishi bilan tavsiflanadi.

Oq qo'y va tashqi ko'rinishi yaxshilangan pushti rang, omon qolish va jun mahsuldorligi qorako'l zotidagi qo'ylardan qolishmaydi.

Qo'ylarning uch turi - so'nggi seleksiya natijalari - Butunittifoq chorvachilik instituti tomonidan Gagarin naslchilik fermasi bilan birgalikda SSSR Qishloq xo'jaligi vazirligiga sinovdan o'tkazish uchun taqdim etildi.

Iqtisodiyotimizda rangli qorako'l uchun ijodiy seleksiyaning muvaffaqiyatlari ko'p jihatdan Butunittifoq chorvachilik instituti yordami bilan bog'liq bo'lib, uning xodimi N. S. Gigineishvili naslchilik fermada 35 yildan ortiq samarali mehnat qilib, butun chorvachilikka uslubiy rahbarlik qilgan.

Yagona seleksiya ishlab chiqarish va keng quyruqli turdagi qora qo'chqorni yetishtirish qiyinroq. Qo'ylar turiga qaraganda (birinchi podaning hajmi ikkinchisiga qaraganda ancha kichik), shuning uchun uning narxi yuqori bo'lishi kerak: kulrangdan ko'ra platina sur qo'ylarini ishlab chiqarish qiyinroq - ko'k; yassi turdagi oq qo'chqor kamzul tipidagi buxoro suriga qaraganda ancha kam uchraydi. Shu munosabat bilan, xarid narxlarini belgilashda qo'chqorlarning naslchilik qiymatidagi farqlar, ularning kamligi yoki oshib ketishi kabi tarkibiy qismlar: ishlab chiqarishning murakkabligi yoki soddaligi, turning yangiligi va hozirgi zamon talabiga muvofiq boshqa omillar hisobga olinishi kerak.

Bu yerda ko'rsatib o'tilgan kamchiliklarning bartaraf etilishi naslchilik xo'jaliklarining o'ta qimmatli nasldor hayvonlarni yetishtirish va sotish bo'yicha o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni to'liq bajarishiga yordam beradi.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Характеристика расцветок серого каракуля и значение их в селекции.-Диссертация, Менглиев Мирхалик Менглиевич. Самарканд-1976.
2. Овцеводство, Москва - 1977.



3. Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. Научный редактор Р.Я.Раджапова–Ташкент: “Шарк”, 2000. –672 с.; Ўзбекистон тарихи (1917-1991й.). Иккита китоб. Масъул муҳаррирлар: Р.Абдуллаев, М.Рахимов, Қ.Ражабов. – Тошкент: “O’zbekiston”, 2019. –560 б.
4. Васин Б.Н. и др. Руководство по каракулеводству.–Москва: Колос,1971–С.65.
5. ҚЎЙЧИЛИК. 69-китоб, Нашриёт уйи “Тасвир” Тошкент – 2021



IJTIMOIIY FANLARNI O‘QITISHGA OID MENING INNOVATSION G‘OYAM


Raymova Gulnur Umirzakovna
Navoiy viloyati Zarafshon shahar
4-maktab tarix fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tavsiyada ijtimoiy fanlarni o‘qitishga oid mening innovatsion g‘oyalar, interfaol usullar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: dolzarb vazifa, usullar, xarita, asr, tarix, Movarounnahr, juft...

Hozirgi vaqtda umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilari oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifa o‘quvchilarning ilm olishga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish, ularning tasavvurlarini kengaytirishdan iborat. Ana shu ishni amalga oshirish uchun bugungi kungacha bir qator tadbirlar bajarildiki, natijada umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi ta’lim samaradorligining muvaffaqiyatiga zamin yaratildi. Bu kabi ma’lumotlarni o‘quvchilar xotirasida bir umrga esda qolishi, turli xil sahnali ko‘rinishlar, qiziqarli o‘yinli usullar, krossvordlar, guruhlar bilan ishlash, bahs-munozaralar olib borishga bog‘liq.

“Yo‘l xaritasi” usuli. Ushbu metodda arablarning Movarounnahrni fatx etishining yo‘l xaritasini yillari bilan moslashtirish uchun qo‘llansa maqsadga muvofiq bo‘ladi.



“Mening juftimni top” usuli. Bu usul sharti asosida so‘zlarni mantiqan bir-biriga bog‘langan holda tarixiy ma’lumotlar yozing.

(Bir-biriga bo‘g‘liq so‘zlar 2 tadan ortiq emas.)

1	Toshkent	5	VIII-VII asrlar
2	1996 yil	6	Lidiya
3	Jorj Stefanson	7	2009
4	1825	8	Amir Temur

1. _____
2. _____
3. _____

“Ikki qismlik kundalik” usulidan ham matn bilan ishlash jarayonida foydalanish mumkin. Bu usul birinchidan, mavzu matnini chuqur tushunishga yordam bersa, ikkinchidan, o‘quvchilarni ijodiy tafakkurga undaydi, ularning mustaqil fikr yuritishlarini kuchaytiradi. Berilgan matn o‘qib chiqilgach, daftar varag‘i quyidagi tarzda ikki qismga bo‘linadi:


Chap tomondagi «Parcha» deb yozilgan qismga o‘quvchilar matn yuzasidan biror parcha yoki



ularga qattiq ta'sir qilgan narsa yoki ularni haqiqatda hayron qoldirgan timsol haqida yozishlari kerak. Ehtimol, bu ularga shaxsiy tajribalaridan nimanidir eslatgandir, balki ularni qiziqtirgan yoki o'ylantirib qo'ygandir. Balki ular bu fikrga, narsaga qo'shilmaslar. Balki bu narsa o'quvchi uchun yangilikdir, balki shu narsa mohiyatini tushunib yetmagandir.

Varaqning «Sharh» deb yozilgan o'ng tomoniga chap tomondagi tanlangan parcha (yoki parchalar) ga sharh yoziladi. Bunda nima uchun ushbu parchani tanlab olganligi, bu narsa uni nima haqida o'ylashga majbur etganligi, shu munosabat bilan unda qanday fikrlar tug'ilganligi haqida sharh beriladi.

“ANTIVIRUS” metodi. O'quvchilar guruhlariga bo'linadi. Ularga mavzuga oid matn beriladi. Bu matn “viruslangan” bo'lib, ya'ni matnda ayrim xatoliklar mavjud bo'ladi. O'quvchilar matn bilan tanishib “virusli” so'zlarni aniqlab unga qarshi “antivirusli” so'zni, ya'ni to'g'ri javobni topishlari kerak bo'ladi. Matndagi —virus” va unga qarshi “antivirusni” to'g'ri va birinchi topgan guruh g'olib sanaladi. Bu metodni yakka tartibda har bir o'quvchining bilimni sinashda ham qo'llash mumkin.



O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi “Ta'lim to'g'risidagi” qonunining mazmun mohiyatidan kelib chiqib tarix darslarida zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ilg'or usullari asosida darslarni tashkil etish bugungi fan o'qituvchilarining oldidagi birinchi vazifadir. Prezidentimiz rahbarligidagi hukumatimiz, maktab o'quvchilarini innovatsion va kreativ fikrlaydigan, zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta'lim tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, bu borada oldimizda turgan dolzarb vazifalar haqida fikr yuritilar ekan, ulug' ma'rifatparvar bobomiz Abdurauf Fitratning “Tarix millatning o'tmishini, taraqqiyotini hamda tanazzulining sabablarini o'rganuvchi fandır” degan fikrlari qadimgi tariximizdagi soliq tizimlarini o'quvchiga o'rgatish, bugungi O'zbekiston taraqqiyoti uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «O'zbekiston tarixi» dasturi. Toshkent. 1980-1990.
2. H. Qobulova. O'zbekiston tarixi fanidan o'quvchilar uchun mo'ljallangan mashq daftari. Qo'llanma. Buxoro, 2021-yil



СРЕДНЕАЗИАТСКИЕ *ДЖОНГИ* КАК КОДЕКСЫ МУСУЛЬМАНСКИХ ПРАВОВЫХ НОРМ В МАВЕРАННАХРЕ XVII–XIX ВЕКОВ

Мухаммадаминов Саидакбар,
к.и.н., доцент кафедры “Изучение языков”
Университета общественной
безопасности Республики Узбекистан

Аннотация

В тезисе рассматривается свод шариатских предписаний - программ (кодексов), составленных "муфтиями" и "кази" в Маваруннахре XVII–XIX веков. Приводятся сведения о значении термина "джунг". Автор указывает на региональные различия между иранскими и среднеазиатскими джунгами. А также рассматривает особенности этих юридических сборников.

Ключевые слова: *джонг*, маджмуа, *муфти*, *кази*, *рукопись*, *Центральная Азия*.

Из истории известно, что в мусульманских странах на базе совета улемов создавались кодексы-пособия для служителей (муфтий, кади) казихана в целях ведения судебной работы. Во многих мусульманских странах исторически были свои своды законов. Например, в Османской империи создавались кодексы *Канунама*, *Маджалла*. В их создании активно участвовали правящие власти, которые также были и инициаторами этих нововведений. В Центральной Азии, по крайней мере, в ханский период, слово “руководство” (пособия) передавалось как *дастур ал-амал* (لم عمل ا روتسد). В сочетании с другими словами *дастур* приобрел значение слова “кодекс”. Например, قال خ ا روتسد – “моральный кодекс”.

Как свидетельствует история, в Мавераннахре было создано множество юридических трактатов. Однако большинство составителей этих трудов (например, *Хидайя*, *Фатава Казихан*, *Машари ‘аш-шарайи’* и т.д.) являлись крупными факихами, но не практикующими казиями либо муфтиями. Именно по этой причине их работы мало связаны с повседневной реальной жизнью. Вероятнее всего, факихов привлекали, в основном, к решению сложных вопросов по теоретическому праву шариата. Но их труды всегда оставались надежными источниками для служащих судебной власти.

Начиная с конца XVI в., в Средней Азии *муфтии* и *а’лам*, являвшиеся служителями судебных органов или *казихана*, стали активно создавать свод законов (кодексы), сборники которых назывались *джонгами*.

В научной литературе мы встречаем передачу слова “джонга” посредством разных других его определений. Например, их сборники также назывались сафина, байаз, маджмуа, кашкула и т.д. Иранские ученые считают, что все эти определения можно передать одним названием *джонг*. Во многих персидских толковых словарях XVII–XVIII вв. *джонг* означает кешт-и калон – «большой корабль» и баёд-и бузург – «объемный сборник стихотворений». Многие исследователи считают, что джонг – это, прежде всего, сборники избранных стихотворений поэтов, а также прозаических произведений малых форм либо фрагменты из них, альбомы рисунков и иллюстраций. В эти сборники включались также сатирические шуточные высказывания (هف ي ظل), анекдоты, рассказы известных поэтов и мн. др.

Среднеазиатские джонги. Фонд рукописей Института востоковедения им. Абу Райхана Беруни Академии наук Республики Узбекистан располагает несколькими десятками сборников, так называемых *джонг* которые относятся к XVII–XIX векам. В данный фонд джонги поступили из разных библиотек, в основном, из центральных библиотек Бухары и Хивы, а также от частных владельцев. Эти *джонги* по своему содержанию отличаются от *джонгов*, хранящихся в Иране и Турции. Дело в том, что большинство среднеазиатских *джонгов*, в основном, посвящены различным вопросам по фикху (*ал-маса’ил ал-фикхийя*).

Мы называем кодексами те *джонги*, в которых систематично изложены правовые решения и т.д. *Джонги* имеют между собой много общего, в частности, схожие стили в изложении правовых текстов, ссылки на одни те же источники, одни и те же фетвы и т.д. Составители *джонга* апеллировали к общим авторитетам и пользовались одними и теми же методами религиозного или рационалистического суждения. Таким образом, джонг был знаком не только узкому кругу улемов, которые участвовали в составлении или обсуждении фетв, но



и был вполне доступен для других пользователей.

Литература:

1. Ёкубова И. Р. Роль синтаксической сочетаемости глаголов восприятия при изучении русского языка в высших военных учебных учреждениях // International scientific review. 2019. №LXIV. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-sintaksicheskoy-sochetaemosti-glagolov-vospriyatiya-pri-izuchenii-russkogo-yazyka-v-vysshih-voennyh-uchebnyh-uchrezhdeniyah> (дата обращения: 08.12.2022).

2. Ёкубова И. Р. СПОСОБЫ ВЫРАЖЕНИЯ ОБЪЕКТА В ВЫСКАЗЫВАНИЯХ С ГЛАГОЛАМИ ВОСПРИЯТИЯ В СОВРЕМЕННОМ РУССКОМ ЯЗЫКЕ //LBC 72 Modern science International scientific journal, № 04, Vol. I, 2019. – 2019. – С. 307.

3. Ёкубова Индира Рустам Кизи, Халилов Назарбек Олимжон Угли Особенности изучения актантных структур глаголов восприятия в современном русском языке // Вестник науки и образования. 2019. №20-1 (74). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-izucheniya-aktantnyh-struktur-glagolov-vospriyatiya-v-sovremennom-russkom-yazyke> (дата обращения: 08.12.2022).

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 3-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.12.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000